

## Tibbiyotda Ichak Lyambliyasining Ahamiyati

*Kuriyazova Saodat Matkarimovna<sup>1</sup>, Daminov Akmal Oxunjonovich<sup>2</sup>,  
Shermuxeimedov Temur Toxirovich<sup>3</sup>*

**Annotatsiya:** Lyambliya - odam ovqat hazm qilish sistemasini zararlaydigan parazit hisoblanib, xivchinlilar sinfiga mansub. U keltirib chiqaradigan enterit, xoletsistit kabi kasalliklar, ba'zan o't pufagida ham yashab ovqat hazm qilishni susaytirishi hamda uning yer yuzida keng tarqalgani (aholining taxminan 10% da) u haqda ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozimligini ko'rsatadi. Keltirib chiqaradigan kasalliklari, yuqish yo'llari va unga qarshi chora-tadbirlarni ko'rib chiqish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

**Kalit So'zlar:** lyamblioz, xivchinlar, aksostillar, sista, pellikula, fitomonada, evglenasimonlar, bazal tanacha, protoplazma, miksotrof, geterotrof, patogen, o't (safro), surtma.

Xivchinlilar- hayvonlarni o'simliklar dunyosi bilan bog'lab turuvchi eng qadimgi guruhi. Xivchinlilarning ba'zilari (masalan, evglenasimonlar va fitomonadalar) yashil suv o'tlariga juda ham o'xshaydi. Xivchinlilarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlaridan biri ularning bir yoki bir nechta xivchin tutishidir. Xivchinlar ularing harakat organoidlari hisoblanib, ular bazal tanachadan o'sib chiqadi. Xivchin ingichka ipsimon yoki tasmaimon ko'rinishda bo'lib, protoplazma o'simtasi hisoblanadi. Tanasi pellikula bilan qoplangan va har bir turga xos bo'lgan doimiy shaklga ega. Oziqlanishi va assimilyatsiya usullari xilma-xil bo'lib, ayrim turlarida assimilyatsiya miksotrof, ayrimlarida geterotrofdir. Ko'payishi jinsiz (mitoz bo'linish) va bo'linish yo'li bilan amalga oshadi.

Xivchinlilar sinfiga 300 tadan ortiq tur kiradi. Ulardan eng keng tarqalgani- *Lambliia intestinalis*.

Lyamblioz (lambliosis) — lambliyalar qo'zg'atadigan invazion kasallik. Odamlarda lyambliozni *Lambliia intestinalis* qo'zg'atadi. Kasallik manbai lyambliyalar bilan zararlangan kishi hisoblanadi.

Lyambliya *intestinalis* - lyamblioz kasalligini chaqiruvchi parazit hisoblanadi. U sutemizuvchilar (odam, quyon, sichqonlar), suvda hamda quruqlikda yashovchilar, ayrim umurtqasiz hayvonlar ichagida parazitlik qiladi. Tanasi noksimon, 2 tomonlama simmetriyali, uzunligi 8-30 mkm. Botiq qorin tomonida ichak devoriga yopishadigan so'rg'ich bo'ladi. Asosan bo'yiga bo'linish orqali jinsiz ko'payadi.

Lyambliyalarning 100 ga yaqin turi bizga ma'lum. XX asrning 20-yillarida yer yuzida lyamblioz deyarli barcha mamlakatlarda keng tarqalgan edi. Lyambliyaning harakatchan (vegetativ) va harakatlanmaydigan (sista) shakllari mavjud.

**Tashqi tuzilishi:** vegetativ shakli noksimon bo'lib, uzunligi 12-15 mkm, eni esa 8-10 mkm gacha boradi. Tanasining oldingi tomonida disk bo'lib, ichak epiteliysiga yopishish uchun xizmat qiladi. Tanasining o'rtasida ikkita tayanch ipi-aksostillar o'tadi. Aksostillar yordamida parazitning tanasi ikkiga bo'linadi, har qaysisida bittadan yadro bo'ladi. Sista shakli ovalsimon bo'lib, uzunligi 10-14 mkm gacha boradi. Ikki qavat po'stlog'I aniq ko'rinib turadi. Yetilmagan sistalarida 2 ta yadro, yetilgan sistalarida esa 4 ta yadro bo'ladi.

**Yashash muhiti:** vegetativ shakli odamning o'n ikki barmoq ichak suyuqligida, sista shakli esa bemor axlatidan topilgan.

**Hayotiy sikli:** sog'lom odamning me'da-ichak yo'llariga ifloslangan qo'l, yuvilmagan mevasabzavotlar orqali uning sista shakli tushadi va o'n ikki barmoq ichagida vegetativ shakliga aylanadi.



Ingichka ichakda ko'payib, uning shilliq qavatini zararlaydi. So'ng yog'on ichakka o'tib (bu yer ular uchun noqulay sharoit hisoblanadi), o'z harakatini yo'qotib sistaga aylanadi. So'ng najas bilan tashqariga chiqariladi.

**Kasallik manbai:** lyambliyalar bilan zararlangan kishi.

**Kasallik tashxisi:** lyambliozga tashxis qo'yishning asosiy ko'rsatkichi parazitlarni aniqlashdan iborat.

**Kasallik belgilari:** ishtaxaning bo'lmasligi, ertalab nonushta qilishga qiynalish, kun bo'yi och qorinda yurish, bolalarda injiqlik, jizzakilik, ich o'z-o'zidan qotishi yoki ketishi, vazn kamayishi.

**Diagnostikasi:** najasdan surtma olib, yod bilan bo'yash orqali uning sistalari topiladi. Tekshirish chog'ida najasdan lyambliyalarining sistasi, o't (safro)dan uning vegetativ shakllarini topish mumkin.

**Kasallikni oldini olish usullari:**

- xomligicha yeyiladigan meva, sabzavotlarni yaxshilab yuvish;
- suvni qaynatib ichish;
- pishirilgan oziq-ovqat va ichiladigan suvni yopiq idishda saqlash;
- pashshalarni qirish;
- ovqatdan avval va hojatdan keyin qo'llarni yuvish;
- parazit tashuvchilarni o'z vaqtida aniqlash.

**Klinik davosi:** kasallikning kechishiga qarab trixopol, furazolidon, aminaxinol va boshqa dori vositalari shifokor tomonidan tavsiya etiladi.

**Tabobatda:** makkajo'xori popugi (o't haydovchi vosita sifatida), oshqovoq urug'I, sarimsoq, shovul bargi, bo'yimadaron.

**Xulosa:** Hozirgi kunda odamda uchraydigan parazit turlari ko'pchilikni tashkil qilib ular odam sog'ligiga, a'zolarining normal faoliyat ko'rsatishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, lamblioz kassaligini keltirib chiqaruvchi lyambliya ham hazm qilish sistemasiga ta'sir ko'rsatib, diareya kassaligini keltirib chiqaradi. U o'n ikki barmoq ichakda yashaydi va o'z-o'zidan ko'payadi. Lyambliyaning faoliyati natijasida odamda ishtaxaning pasayishi, holsizlik, jizzakilik kabi alomatlar kelib chiqadi. Shuni ham takidlab o'tish joizki, lyambliyani ayrim olimlarimiz shartli ravishdagi patogen deb ham hisoblashadi. Undan shikoyat bo'lsagina davolash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni lyambliyalar odam organizmida doimiy mavjud bo'lib, u ko'payib ketsagina kassalik kelib chiqishi mumkin. Lyambliozning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya etish talab etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.X.Xoliqov. A.Q.Qurbonov. A.O.Daminov. M.V.Tarinova "Tibbiy biologiya va genetika" Toshkent 2019.
2. O'.Pratov., F.O'.Azimova., I.Z.Saparboyev., Biologiya. Darslik. Toshkent 2022.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2005.
4. S.A.Pivo "Tibbiy parazitologiya" Toshkent 2008.
5. K.I.Abuladze "Parazitologiya va hayvonlarning invaziv kasalliklari» Toshkent 2000.

